

## YEVROPA TILLARIDA YARATILGAN ASARLARNING O'ZBEKCHAGA O'GIRILISHI VA BU JARAYONNING TARJIMADAGI O'RNI

**G'oyibnazarova Sitora Ulug'bek qizi**

*Termiz davlat universiteti*

*Xorijiy filologiya fakulteti*

*Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi talabasi*

*sitoragogibnazarov@gmail.com*

**Ramazonov Shohruh Nusratillo o'g'li**

*Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

*shakhrookhramazanov@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tarjimonlik faoliyatida olib borilgan ishlar; yevropa adabiyotlari o'zbek tiliga o'girila boshlagani va bu jarayonning keyingi yarim asrdan ko'proq vaqt mobaynida yanada jadallashib ketishi berilgan. Bu yurtimizning ilmiy-texnikaviy salohiyatining kamol topishi va boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalarning kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so'zlar:** *tarjimonlar, g'arbiy-yevropa tillari, savdo-sotiq, diplomatik, madaniyat, o'zbek olimlari, yozuvchilar, teatrshunos olimlar, "Hamlet" tragediyasi, "Shekspir" asarlari, artist.*

### KIRISH

Tarjima tarixi juda qadim zamonlardan boshlanadi. Turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar vakillari bir-birlari bilan muomila-munosabatda bo'lganlari uchun azaldan tarjimon (tilmoch) yordamiga ehtiyoj sezganlar. Shu bois xalqlar o'z tarjimonlariga chuqur hurmat bilan qaraganlar. Uzoq davrlar mobaynida o'g'zaki shaklda hukm surgan tarjimachilik faoliyati asta-sekin yozma shaklga ham ko'chgan. Shunday qilib arab, fors tillaridan, qisman hindcha, yunoncha va usmonli turkchadan, keying bir asr mobaynida esa rus va G'arbiy Yevropa tillaridan ona tilimizga talay adabiy, tarixiy va ilmiy-texnikaviy asarlar o'girildiki, ular o'zbek xalqi yozma adabiyotining katta ulushini tashkil etadi. Yurtimizda tarjima adabiyoti Vatan adabiyoti bilan bir safda rivojlanib uning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. XX asr boshidan e'tiboran turli sohalar bo'yicha G'arbiy Yevropa tillarida yaratilgan asarlarning o'zbekchaga ko'plab o'girila boshlagani va bu jarayonning keying yarim asrdan ko'proq davr mobaynida yanada jadallashib ketgani yurtimiz ilmiy-texnikaviy salohiyatining kamol topishi va boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalarning kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilida qalam tebratayotgan yozuvchilar ijodidan amalga oshirilgan tarjimalar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, XIX asr oxiri va XX asr boshida A. Konan Doylning "Sherlok Xolms haqida hikoyalar" va Daniel Defoning "Robinzon Kruzo" asarlarining o'zbekchaga o'girilganiga guvoh bo'lamiz. Asarlar qisqartirilgan holda yarim-

hikoya shaklda tarjima qilingan. Mazkur asarlar tarjimalari hozirgi davr talabi darajasidan uzoq bo'lsa-da, asrimiz boshida o'zbek madaniyatida yuz bergan katta voqea – ingliz xalqi badiiy yodgorliklari o'zbek tiliga o'girish borasida qo'yilgan ilk qadam sifatida adabiyotimiz tarixida alohida ahamiyatga molikdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA IZLANISH METODOLOGIYASI**

Maqola bo'yicha tadqiqot davomida ingliz adabiyoti asarlarining tarjimalar soni yil sayin osha borganligi, o'zbekchaga o'girilgan mazkur asarlarning ko'pchiligi mamlakatimiz teatrlarida muvaffaqiyatli sahnalashtirilgani va o'tgan davr mobaynida jahon adabiyoti durdonalari kengroq miqyosda yurtimizda tanishtirilganligi tahlili yoritilgan. Shunday qilib, mamlakatimizda bilvosita tarjimadan bevosita tarjimaga o'tish jarayonini boshlab yuborildi. Bu orqali jahon adabiyotlarida ko'proq xabardor bo'la olamiz.

### **NATIJALAR**

30-yillarning birinchi yarmidan e'tiboran o'zbek kitobxonlari ingliz tilidagi mualliflar asarlari bilan yaqindan tanisha boshladilar. Bu davrda tarjimonlar e'tiborini buyuk ingliz dramaturgi V. Shekspir ijodi ko'proq o'ziga tortdi. Dramaturgning nazmda bitilgan "Veronalik ikki yigit" komediyasini Javod Obidov va "Hamlet" tragediyasini Cho'lpon nasriy yo'l bilan o'zbek tiliga tarjima qilishdi. "Hamlet" tragediyasi tarjimasi ko'pgina jiddiy xato va kamchiliklarga ega bo'lishiga qaramasdan, o'zbek kitobxonlarining eng sevimli asarlaridan biriga aylandi va "Hamza" teatri repertuaridan mustahkam o'rin egalladi.

### **MUHOKAMA**

1950-60 yillarga kelib o'zbek tiliga o'girilgan asarlar tarjimalari sifat jihatidan ancha ustunligi bilan ajralib turadi: san'atkorlarning tajriba, mahorat va malakalari osha borib, tarjimalar qator xato va kamchiliklardan xalos bo'lib sayqallasha boshlaydi. Tarjima tanqidchiligi bo'yicha jurnal va gazetalar sahifalarida chop etilgan qator ilmiy tahlil va umumlashmalar ta'sirida ko'pchilik tarjimonlar o'z ma'suliyatlariga endi ilmiy-tanqidiy yondashadigan bo'lib qoladilar. Shundan keying yillarda o'zbek kitobxonlari V. Shekspirning "Richard III" hamda "Antoniy va Kleopatra" asarlarini Asqad Muxtor va Komil Yashin tarjimalarida o'qishga muyassar bo'ldilar. V. Shekspir ijodi bilan o'zbek kitobxon ommasini yanada kengroq tanishtirish borasida Respublikamizning taniqli shoiri Jamol Kamol katta jonbozlik ko'rsatdi. U 80-yillarning birinchi yarmida V. Shekspirning atoqli shoir va tarjimonlarimiz tomonidan o'girilgan barcha dramatik asarlarini yaxshigan tahrir qilib nashrga tayyorladi va o'zi ham muallifning "Qish ertagi", "Qirol Genrix IV", "Makbet" kabi asarlarini tarjima qilib mazkur nashrga kiritdi. Shunday qilib, Shekspir dunyoning asarlari o'zbek tiliga eng ko'p tarjima qilingan daholaridan hisoblanadi. Uning ayrim asarlari tilimizga ikki-uch martadan o'girilgan. Hozirgi kunda ingliz tilidagi yozuvchilar ijodidan o'zbekchaga o'girilgan asarlar katta miqdorni tashkil etadi. Bular orasida Jeyms Grinvudning "Juldur kiyimli bola", R. Stivensonning "Xazinalar oroli", Jek Londonning "Martin Iden", "Uch qalb" romanlari va hikoyalar to'plami va hokazolar...

## XULOSA

Bu sa'y-harakatlar o'zbek kitobxonlarining jahon adabiyoti durdonalari namunalari bilan batafsilroq tanishishlari uchun imkoniyat yaratib berish baravarida yaqin kelajakda tahlil va tanqid uchun ham shubxasiz zaruriy material xozirlay oladi. Nihoyat, qayd qilish zarurki, mamlakatimizda ko'p asrlik tarixiy davr mobaynida juda katta badiiy-adabiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy, ilmiy, diniy asarlar o'zbek tiliga o'girildi. Tarjima adabiyoti Vatan adabiyoti bilan yonma-yon paydo bo'lib, rivojlanib, xalqimizning g'oyaviy-estetik ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Adabiyotimiz tarixining katta ulushini tashkil etadigan bunday boylikni ilmiy-tanqidiy o'rganib, natijasini tarjima adabiyotiga joriy etish tarjimachilik ishining yuqori saviyasini belgilaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдулла Каххар. Десятая муза. «Литературная газета». 16 де-кабрь, 1961.
2. Абдурахмонов Н. Узбек тилида жуфт сузлар. - Самарканд: Сам-ДУ нашриёти, 1969. - 88 с.
3. Авалиани Ю. Ю. Тексты лекций по компаративно-сопоставительной фразеологии иранских языков. - Самарканд: Изд-во Сам-ГУ. 1979. - 76 с.
4. Азнаурова Э. С. К вопросу о природе стилистической функции слова /' Сб. науч. трудов 1 МГПИИЯ им. М.Тореза. - М., 1973. ~ Вып. 73. - с. 713. '
5. Азнаурова Э. С. Очерки по стилистике слова. - Ташкент: Фан, 1973. 405 с.
6. Азнаурова Э. С. Стилистическая функция как вторичная функция языка // Проблемы лингвистической стилистики: Тез. науч. конф. 1 МГПИИЯ им. М.Тореза. - М., 1969. - с. 10-12.
7. Акуленко В. В. «О ложных друзьях переводчика» // «Англо-русский и русско-английский словарь ложных друзей переводчика». - М., 1969. - с. 371-384.
8. Алехина А. И. Фразеологическая единица и слово. - Минск: Изд-во БГУ. 1979. - 152 с.
9. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. - Л.: Изд-во ЛГУ, 1963. - 207 с.
10. Амосова Н.Н. Слово и контекст // Учен. Записки ЛГУ. - 1958 -№ 243. - Вып. 42. - с. 3-23.
11. Андрес А. Дистанция времени и перевод // Мастерство перевода. - М., 1965. - с. 118-131.
12. Баксман Б. И. Речь литературных персонажей-иностранцев как дополнительный источник изучения языка. - Л., 1971. - Т. 317 - с. 137-141.

13. Баласанова А. Л. Сочинительные фразеологические единицы и контекст в современном английском языке.: Дне. ... канд Фи- лол. наук. - М., 1973. - 220 с.

14. Бархударов Л. С. Общелингвистическое значение теории перевода // Теория и критика перевода. - Изд-во ЛГУ, 1962. - с. 814.